

6-SINF

(haftasiga 2 soatdan, jami 68 soat, A2+: 102 soat)

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:

A2

media vositalardan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topa olish;
kundalik faoliyatida uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish (oddiy tabriknomalar yoza olish).

A2+

media vositalardan zarur bo'lgan axborotlarni topa olish, saralash;
kundalik faoliyatida uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish (o'zi haqidagi ma'lumotlarni yoza olish).

O'zini-o'zi shakllantirish kompetensiyasi:

A2

o'qib-o'rganish, turli to'garaklarga qatnashish;
shaxsiy gigiyena, texnika havfsizligi qoidalariga rioya qilish;
qiziqishlariga ko'ra qobiliyatini ko'rsata olish (bilimlar bellashuvi, turli ko'rik-tanlovlarda ishtirok etish).

A2+

o'qib-o'rganganlari asosida sinfda, maktabda uchraydigan muammolarni hal eta olish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A2

oilasi, maktabi, mahallasi oldidagi burchini bilish;
maktabi, sinfidagi jihozlarni asrab-avaylash.

A2+

turli tadbirlar, hasharlarda ishtirok etish va muomala madaniyatiga amal qilish;
oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, yordamga muhtojlarga sahovatli bo'lish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

A2

Vatan tuyg'usi muqaddas ekanligini his qilish;
turli yo'nalishdagi san'at asarlarini tushuna olish;

A2+

umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va.h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

A2

turli vaziyatlarda hisob-kitob bilan ish yuritish.